4.Yangi avlod yangi kelajak .2022. 23-28-betlar.

O‘QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Xodjiyeva F.O., Navoiy davlat universiteti dotsenti,
Suyarqulova Sh.B., Navoiy davlat universiteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada maktabgacha, maktab hamda oliy ta’lim bosqichlarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning mazmuni, bosqichlari hamda samarali usullari yoritilgan. Har bir ta’lim darajasining yosh va psixologik xususiyatlari inobatga olingan holda, tegishli metodlar tanlab olingan: o‘yinli mashg‘ulotlar, savol-javoblar, muammoli vaziyatlar, guruhiy faoliyatlar va analitik topshiriqlar orqali tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan yondashuvlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, maktabgacha yoshdagi bolalar, maktab yoshidagi bolalar, oliy ta’lim talabalari, pedagogik metodlar, usullar, tafakkur ko‘nikmalari.

Аннотация: в данной статье освещаются содержание, этапы и эффективные методы формирования и развития навыков критического мышления на дошкольном, школьном и высшем уровнях образования. С учетом возрастных и психологических особенностей каждого этапа обучения были отобраны соответствующие методы: игровые занятия, вопросы и ответы, проблемные ситуации, групповая деятельность и аналитические задания. Проанализированы подходы, ориентированные на развитие критического мышления.

Ключевые слова: критическое мышление, дети дошкольного возраста, школьники, студенты высших учебных заведений, педагогические методы, методы, навыки мышления.

Abstract: this article highlights the content, stages, and effective methods of developing and enhancing critical thinking skills at preschool, school, and higher education levels. Taking into account the age and psychological characteristics of each educational stage, appropriate methods have been selected: play-based activities, Q&A sessions, problem situations, group work, and analytical tasks. The article analyzes approaches aimed at fostering critical thinking.

Keywords: critical thinking, preschool children, school-age children, university students, pedagogical methods, techniques, thinking skills.

Bugungi kunda tez o‘zgarayotgan va murakkab dunyoda bolalar uchun tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish juda muhimdir. Ushbu ko‘nikmalar nafaqat akademik muvaffaqiyat uchun, balki hayotda to‘g‘ri va oqilona qarorlar qilishda ham zarurdir. Tanqidiy fikrlash bolalarga o‘z fikrlarini mustaqil ravishda shakllantirish, turli nuqtai nazarlarni inobatga olish va mantiqiy tahlil qilish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirishkonsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonida “… talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllantirilmagan”ligi masalasiga e’tibor qaratilgan. [1]

Tanqidiy fikrlash o‘quvchilarning o‘z fikrlarini mustaqil ifoda eta olishlari va turli muammolarga nisbatan yondashuvlarini kengaytirishga imkon beradi. S.Qodirov va M.To‘laganov tanqidiy fikrlashni o‘quv jarayonida rivojlantirish usullarini o‘rganib, interfaol metodlarning samaradorligini ta’kidlaganlar [2, 3]. Tanqidiy

fikrlash o‘quvchilarni tahlil qilish, dalillarni o‘rganish va asosli xulosalar chiqarishga o‘rgatadi.

Bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir bosqichda ongiy rivojlanish darajasi, fikrlash qobiliyati va ijtimoiy tajriba turlicha bo‘ladi. Shunga ko‘ra, tanqidiy fikrlashni shakllantirishda qo‘llaniladigan usul va yondashuvlar ham farqlanishi lozim. Psixolog V.S.Muxina ta’kidlaganidek, “Bola tafakkuri yosh o‘tishi bilan murakkablashib boradi, bu esa pedagogdan individual yondashuvni talab etadi”. [4] Ushbu mulohazalardan kelib chiqib, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning usullarini uch bosqichda, ya’ni maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi hamda oliy ta’lim talabalari namunasida ko‘rib chiqamiz:

Maktabgacha yosh-bu bolaning aqliy, ijtimoiy va hissiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda tanqidiy fikrlash asoslari qo‘yilishi mumkin. Tanqidiy fikrlovchi bola voqealarni faqat yod olmaydi, balki ularni tushunadi, sabab-oqibatni izlaydi, turli holatlarga o‘z nuqtai nazaridan baho berishga harakat qiladi. Bu yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning bir nechta yo‘llari mavjud. Bular:

O‘yin orqali o‘rgatish. O‘yin - bu yoshdagi bolalar uchun asosiy ta’lim vositasidir. Maxsus didaktik yoki mantiqiy o‘yinlar bolalarning mantiqiy fikrlash, farqlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatlarini faollashtiradi. Masalan, “Nimani o‘zgartirdim?” o‘yinida bola buyumlardagi o‘zgarishni sezadi va nima o‘zgarganini aytadi. Bu o‘yinlar bolalarning kuzatuvchanligini oshirib, mustaqil fikr yuritishga undaydi.

Rasmli savollar va suratlar ustida fikrlash. Rasmlar orqali bolalarning tanqidiy fikrlashini faollashtirish mumkin. Bola suratda tasvirlangan holatni kuzatadi, unga savollar beriladi: “Bu bola nima qilmoqda?”, “U to‘g‘ri ish qildimi?”, “Agar sen uning o‘rnida bo‘lsang, nima qilarding?”. Bu turdagi topshiriqlar orqali bola voqeani tahlil qiladi, baho beradi va xulosa chiqaradi.

Ertaklar asosida muhokama. Ertaklar bolalarning tasavvurini boyitadi va axloqiy qarashlarini shakllantiradi. Ertak tinglangach, tarbiyachi bolaning e’tiborini asosiy voqealarga qaratib, savollar beradi: “Bu qahramon to‘g‘ri ish qildimi?”, “Nima sababdan bu voqea ro‘y berdi?”, “Ertak boshqacha tugashi mumkinmi?”. Shunday savollar bolaning tafakkurini harakatga keltirib, voqealarni chuqur tahlil qilishga yordam beradi.

Guruhli suhbatlar va rolli o‘yinlar. Bolalarni kichik guruhlarda suhbatga jalb qilish yoki turli ijtimoiy vaziyatlarni rolli tarzda sahnalashtirish orqali tanqidiy fikrlash sanaladi. Masalan, o‘yinchoqni bo‘lishmayotgan ikki bola vaziyatida boshqa bolalarning fikrini olish, to‘g‘ri yechimni topishga undash mumkin. Bu metod bolaning o‘z fikrini asoslash, muqobil yechimlarni taklif qilish va boshqalarning fikrini inobatga olish ko‘nikmalarini shakllantiradi.[5]

Maktab ta’limida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish - ularning mustaqil fikrlashi, savol berish, tahlil qilish va xulosaga kelish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Maktab yoshidagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun bir qator usullar va strategiyalar mavjud. Ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlash uchun turli adabiyotlar hamda tadqiqotlar mavjud:

Savol berish va muhokama. Ochiq savollar orqali bolalarni fikrlashga undash, ularning dunyoqarashini kengaytiradi va mulohaza yuritish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Har bir darsda savol-javob jarayonlarini tashkil etish, “fikr doirasi” yoki “savatdagi savollar” orqali bolalarning faol ishtirokini ta’minlash mumkin. [6]

Muammo asosida o‘rganish – bu o‘quvchilarni real hayotga yaqin bo‘lgan muammolar ustida ishlash orqali bilim olishga undaydigan o‘quv yondashuvlaridan biridir. Ushbu metodda o‘qituvchi tayyor bilimni beruvchidan ko‘ra yo‘naltiruvchi, rahbar sifatida ishtirok etadi. O‘quvchilar esa o‘rganish jarayoning faol ishtirokchisiga aylanadi. Bu jarayonda tanqidiy fikrlash asosiy o‘ringa ega bo‘ladi, chunki o‘quvchi muammoni anglaydi, savollar beradi, dalillar yig‘adi, ularni tahlil qiladi va yechim taklif qiladi.

Ijodiy yozuv va fikr yuritish - maktab yoshidagi o‘quvchilarning fikrni mustaqil shakllantirish, bayon qilish, izchil va mantiqiy tarzda ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan muhim metodlardan biridir. Bu usul orqali bolalar o‘z qarashlarini yozma shaklda ifodalaydi, turli mavzularda mulohaza yuritadi va yangi g‘oyalar yaratadi. Ijodiy yozuv tanqidiy fikrlash uchun ayniqsa qulay vosita, chunki bu jarayonda o‘quvchi:

- berilgan mavzuni o‘rganadi;
- unga bo‘lgan munosabatini bildiradi;
- dalillar asosida fikrini asoslaydi;
- muqobil fikrlar haqida o‘ylaydi;
- xulosa chiqaradi.

Tahliliy o‘yinlar va faoliyatlar. Ushbu metod o‘quvchilarda mantiqiy va tahliliy tafakkurni shakllantirish, muammolarni turli nuqtai nazardan ko‘ra olish, o‘z fikrini asoslash va himoya qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu turdagi mashg‘ulotlar o‘yin shaklida tashkil qilinadi, biroq ularda qatnashgan o‘quvchi faol fikrlaydi, izlanadi, dalillarni solishtiradi va to‘g‘ri xulosa chiqarishga intiladi. Eng asosiysi, bu jarayonda har bir bola o‘z fikrini bildiradi va boshqalarni tinglaydi. Asosiy tahliliy o‘yon turlari:

1. Munozara (debat) – o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linib, qarama qarshi fikrlarni himoya qiladi. Masalan, “Kompyuter o‘yinlari foydalimi yoki zararli?”, “Maktab formasi bo‘lishi kerakmi?”. Munozara davomida o‘quvchilar dalillar yig‘adi, fikr yuritadi, savollarga javob beradi va muloqot qiladi.
2. Rolli o‘yinlar – Muayyan ijtimoiy yoki tarixiy vaziyatga asoslangan rollar beriladi va o‘quvchilar shu rol doirasida harakat qiladi. Masalan, “Mahalla yig‘inida daraxt kesishga qarshi chiqayotgan faollar va ruxsat bermoqchi bo‘lgan mansabdorlar o‘rtasidagi suhbat”. Bu orqali o‘quvchi turli pozitsiyalarni tushunadi va mos fikr bildiradi.
3. Simulyatsiyalar (taqlidiy mashqlar) – Muayyan tizim yoki jarayon sun’iy tarzda modellashtiriladi va o‘quvchilar shu tizim ichida muammoni hal qilishga harakat qiladi. Masalan, “Qishloq byudjetini qanday taqsimlash kerak?” yoki “Maktabda yangi loyiha qanday joriy etiladi?”.
4. Qaror qabul qilish o‘yinlari – O‘quvchilarga turli muammoli vaziyatlar taqdim etiladi va ulardan samarali qarorlar qabul qilish so‘raladi. Masalan: “Sinfdagi har doim bezorilik qiladigan bola bilan qanday muomala qilinadi?”. Bu orqali ular

ijtimoiy vaziyatlarni tahlil qiladi va oqibatlar haqida o‘ylaydi.

Oliy ta’lim tizimi talabalarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun turli usullarni qo‘llash zarur. Muammoli o‘qitish, guruh muhokamalari, analitik yozuv, kritik tahlil, ochiq savollar va holat tahlili kabi usullar orqali talabalar o‘z fikrlarini mustaqil ravishda shakllantirish va baholash ko‘nikmalarini oshirishi mumkin:

Muammoli o‘qitish (Problem-Based Learning) – bu o‘qitish jarayonida real hayotga yaqin, ochiq va ko‘p yo‘nalishli muammolar asosida talabaning o‘quv faoliyatini tashkil etish metodidir. Talabalarga biror murakkab vaziyat yoki muammo beriladi va ular bu muammoni hal qilish yo‘llarini izlashadi. Bu jarayonda talabalar bilimni mustaqil izlab topishadi, baholashadi, tahlil qilishadi va yechim yaratishadi. Bu metod ularning tanqidiy fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish, muqobil variantlarni ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘qituvchi esa bu jarayonda yo‘naltiruvchi rolida bo‘ladi, tayyor javob bermaydi, balki talabalarni izlanishga undaydi.

Guruh muhokamalari. Talabalarni kichik guruhlarga bo‘lib, biror mavzu yoki muammo yuzasidan fikr almashishga yo‘naltirish tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samarali vositasidir. Guruhda har bir a’zo o‘z fikrini ifoda etadi, boshqalarning fikrlarini tinglaydi, ularga baho beradi va umumiy xulosaga keladi. Bu jarayon talabalarda o‘z fikrini asoslash, tanqidiy tinglash, tahlil qilish va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi. Guruh muhokamasi orqali talabalar fikrlar xilma-xilligini qadrlashni o‘rganadi va qaror qabul qilishda turli nuqtai nazarlarni hisobga olishadi.

Analitik yozuv – bu talabalarni berilgan mavzu yoki muammoni chuqur tahlil qilishga undovchi yozma topshiriqlardir. Bu jarayonda talaba mavzuni o‘rganadi, asosiy g‘oyalarni ajratadi, dalillarni baholaydi va o‘z qarashlarini yozma ravishda asoslaydi. Masalan, ilmiy maqola, analitik esse, tanqidiy sharh kabi topshiriqlar orqali talabalar izchil va asosli fikr bildirishni o‘rganadi. Analitik yozuv tanqidiy fikrlash uchun muhim, chunki u talabadan chuqur o‘ylash, dalillarga asoslanish, muqobil fikrlarni ko‘rib chiqish va xulosa chiqarishni talab qiladi.

Kritik tahlil - mavjud matnlar, ma’lumotlar yoki hodisalarga tanqidiy yondashuvni shakllantirishga qaratilgan usuldir. Talabalarga biror maqola, film, kitob yoki statistik ma’lumotlar to‘plami beriladi va ular ushbu materialni baholaydi: maqsadi, asosiy g‘oyasi, dalillarining kuchi, muqobil nuqtai nazar, kamchiliklar va kuchli jihatlarini tahlil qiladi. Bu usul orqali talabalar mavjud bilim va ma’lumotlarga shunchaki ishonib qolmasdan, ularni sinchkovlik bilan o‘rganishga odatlanadi, mustaqil fikrlash va baholash malakalarini rivojlanti

Ochiq savollar berish. O‘qituvchining savollari tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ochiq savollar – bu “ha/yo‘q” yoki “haqiqiy/noto‘g‘ri” kabi qisqa javoblarni emas, balki chuqurroq mulohaza, tahlil va baholashni talab qiladigan savollardir. Masalan: “Siz bu fikrga nima sababdan qo‘shilmayapsiz?”, “Agar bu siyosat o‘zgarsa, qanday oqibatlar bo‘ladi?”, “Bu qarorning muqobil variantlari qanday bo‘lishi mumkin?” Kabi savollar talabani chuqurroq fikr yuritishga undaydi undaydi. O‘qituvchilar o‘z darslarida ochiq

savollar orqali talabalarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirishlari mumkin.

Holat tahlili (Case Study) - real hayotdagi murakkab ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy yoki boshqaruv holatlarini o‘rganish va ularni tahlil qilishga asoslangan usuldir. Talabalarga vaziyat (case) tavsiflanadi va ular ushbu holatdagi muammoni aniqlab, asosiy ishtirokchilarni baholab, turli yechim variantlarini ishlab chiqadilar. Bu usul tanqidiy fikrlashni chuqurlashtiradi, chunki har bir qaror o‘ziga xos oqibatlarni keltirib chiqaradi va talabalar bu oqibatlarni oldindan ko‘ra olishni o‘rganadilar. Holat tahlili ko‘pincha bahs-munozara, guruh ishlariga bog‘liq holda olib boriladi va qaror qabul qilish jarayonini real hayotga yaqinlashtiradi.

Tanqidiy fikrlash bugungi zamonaviy ta’limning ajralmas qismiga aylanayotganini inobatga olgan holda, har bir yosh guruhida ushbu ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish, shaxsning intellektual salohiyatini oshirish va kelajakdagi professional faoliyatga tayyorgarlik ko‘rishda muhim rol o‘ynaydi. Maktabgacha ta’lim bosqichida bu ko‘nikmalar o‘yinlar, savol-javoblar va tasavvurga asoslangan mashg‘ulotlar orqali yuzaga chiqsa, maktab ta’limida esa muammoli vaziyatlar, guruhiy ishlanmalar va tahliliy topshiriqlar orqali chuqurlashadi. Oliy ta’lim bosqichida esa talabalarda ilmiy fikrlash, tahlil qilish va dalillarga asoslangan qaror qabul qilish ko‘nikmalari mustahkamlanadi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘qituvchilar va tarbiyachilar innovatsion, interaktiv, muammoli va shaxsga yo‘naltirilgan metodlardan keng foydalanishlari zarur. Bu esa ta’lim sifatini oshirish, faol va tafakkur qiluvchi yoshlarni tarbiyalashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov, S. (2021). Oliy ta’limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy metodlari. Pedagogika va psixologiya jurnali, 10(2), 15-18.

2. To‘laganov, M. (2020). Tanqidiy fikrlashning psixologik jihatlari. Toshkent: Ilmiy Nashr

3. Muxina V.S. Bolalar va o‘smirlar psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002. – 115-b.

4K.S. G’ulomova, “Maktabgacha ta’limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish”, 2020. A.M. Karimova, “Bolalar va fikrlash”, 2021.

5.Paul, R. W., Elder, L. (2006). "The Miniature Guide to Critical Thinking Concepts and Tools.